

QISSALARDA YETIMLIK OBRAZI

Sobirjonova Mohidil Bahodir qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

(G'afur G'ulomning „Shum bola“ va Tohir Malikning „Alvido, bolalik“ qissalari misolida)

Annotatsiya: Maqolada o'zbek qissa janridagi yetimlik obrazi ifodalab beriladi. O'zbek adabiyotida inson hayoti, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy raqobat doimo diqqat markazida bo'ladi. Shu sababli, yetimlik obrazi adiblarning asarlarida inson olamini chuqur ochib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. „Shum bola“ va „Alvido, bolalik“ qissalarida yetimlik obrazi va unda keltirilgan voqealar, obrazlardagi hayotiy qiyinchiliklar, og'ir turmush kabilar badiiy vositalar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: qissa janri, yetimlik, hadislar, obraz, insonparvarlik, mehnatsevarlik, urf-odat, yetimlik motivi, yetimlik muammosi, „Yetim bola“ obrazi

Annotation: The article explores the depiction of the image of orphanhood in Uzbek novellas. In Uzbek literature, human life, spiritual experiences, and social competition have always been at the center of attention. Therefore, the image of orphanhood is considered one of the main factors that deeply reveal the human world in the works of Uzbek writers. In the novellas “Shum bola” (“The Mischievous Boy”) and “Alvido, bolalik” (“Farewell, Childhood”), the image of orphanhood, as well as the events, life difficulties, and hardships experienced by the characters, are artistically portrayed through various literary devices.

Keywords: novella genre, orphanhood, hadiths, character, humanism, diligence, traditions, motif of orphanhood, problem of orphanhood, image of the “Orphan Child”

Аннотация: В статье раскрывается образ сиротства в узбекской повести. В узбекской литературе человеческая жизнь, духовные переживания и социальное соперничество всегда находятся в центре внимания. Поэтому образ сиротства считается одним из основных средств, глубоко раскрывающих внутренний мир человека в произведениях узбекских писателей. В повестях «Шум бола» («Озорной мальчик») и «Прощай, детство» образ сиротства, жизненные трудности и тяжёлые обстоятельства героев художественно отражены с помощью выразительных средств.

Ключевые слова: жанр повести, сиротство, хадисы, образ, гуманизм, трудолюбие, традиции, мотив сиротства, проблема сиротства, образ «Сиротского ребёнка»

Qur'oni karimdagi ba'zi bir oyatlar, hadislar, suralar o'zbek adabiyotining nasriy janrini tahlil etishga yordam beradi. Baqara surasining 83-oyati izohida: „Yetim deb shariatda balog'at yoshiga yetmay otasi vafot etgan sag'ir va sag'iralarga aytiladi. Hadisi sharifda „Balog'at yoshidan so'ngra yetimlik yo'q“ deyilgan.

Bolaligim-podsholigim -deydi dono xalqimiz chindan ham shunday. Chunki bolalik davrimizda bizning barcha orzu-istaklarimiz amalga oshadi. Biz bu davrda juda ham e'tibor talab

bo'lganligimiz uchun yaqin insonlarimizdan alohida mehr kutamiz. Agar aksi bo'lib qolsa-chi? Mana shu savolga quyidagi qissalar orqali javob topamiz.

G'afur G'ulomning „Shum bola” qissasida otasidan erta yetim qolgan, onasi farzandlarini boqaman deb tinim bilmagan, hayotning og'ir kunlarini boshidan kechirgan Qoravoy obrazi misolida ko'ramiz. Qoravoy hayoti davomida bir necha voqea va hodisalarni boshidan kechiradi. „Oyim boshimga oqlov bilan urganda qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig'I oqq aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi.” G'afur G'ulom. Shum bola. - Toshkent; G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. - 100-bet. Mana shu voqea orqali biz ikki vaziyatga guvoh bo'lamiz ular: ham kulguli, ham achinarli. Shu orqali ham yozuvchi boshqa ijodkorlardan shu hislati orqali tubdan farq qilgan. Ona farzandlarini boqaman deb mehnat qiladi, Qoravoy esa uydagi mahsulotlarni ko'chaga olib chiqib, do'stlari bilan birgalikda ovqat qilib yemoqchi bo'ladi. Onasi esa o'g'lining bu ishidan qattiq ranjiydi. Shundan keyin esa Qoravoyning achchiq zahmatli kunlari boshlanadi.

Tohir Malikning „Alvido, bolalik” qissasida Dilfuza, Manzura, Qamariddin kabi obrazlarda undan ham achinarli bo'lgan voqealarga guvoh bo'lamiz.

Dilfuza ko'ngli yarim qiz, uni onasi erta vafot etgan. Otasi esa uylanishi, ya'na kim-o'z muallimasi A'zamxonova bilan turmush qurish niyatida ekanligi qizning qalbida chuqur og'ir his paydo qildi. Dardini aytay desa, uni tushunadigan biror kimsa yo'q. Asror bilan Qamariddin bundan xabar topib uni qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Qamariddinning otasi yo'q, onasi esa uni bolaligida tashlab ketgan. U esa tutingan buvisi qo'lida katta bo'ladi. Buvisi olamdan o'tgach, onasi uni majburlab olib ketadi. Onasining esa turmush o'rtog'I bo'ladi. Qamariddin u inson bilan kelisha olmaydi. Shu tariqa uning hayotdagi ayovsiz kunlari boshlanadi.

Qissalarda yetimlik obrazi adabiy janrining insonparvarlik mazmunini ochib beradi. U inson hayotidagi og'ir sinovlarni, mehrga intizorligini, shu bilan birga kuchli irodani talab etadi. Yozuvchilar yetimlik obrazi orqali xalqni e'tiborli bo'lishga, ularga mehr qo'lini cho'zishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Zamonaviy o'zbek qissachiligi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Aliyev A. „Istiqlol va adabiyot”. Toshkent: „O'zbekiston”, 1997.
3. Nazarov B. Adabiyotshunoslik asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4. Yo'ldoshev Q. Badiiy tafakkur va xalq ruhiyati. - Toshkent: Sharq, 2012.
5. Normatov U. Bugungi nasrimizning yetakchi tamoyillari. O'z AS 20001 yil, 3-son.
6. Qur'oni karim. Baqara surasi 83-oyat. Izohi. - T: Tafsir-books, 2022. - B.12.
7. O'rganilgan „Shum bola” va „Alvido, bolalik” qissalari matnlari